



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FUQAROLARNING BEPUL TIBBIY YORDAM Olishga bo'lgan KONSTITUTSIYAVIY HUQUQINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Turobova Niginabonu Yo'ldosh qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Davlat boshqaruvi huquqi mutaxassisligi magistanti,

Harbiy tibbiyot akademiyasi

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim bo'limi xodimi

+99891 338 13 97

Niginayuldaw272@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15241274>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-Aprel 2025 yil

Ma'qullandi: 15-Aprel 2025 yil

Nashr qilindi: 18-Aprel 2025 yil

KEYWORDS

Konstitutsiya, bepul tibbiy yordam, sog'liqni saqlash huquqi, tibbiy sug'urta, kafolatlangan tibbiy yordam hajmi, ijtimoiy davlat, ijtimoiy kafolatlar, konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmlar.

ABSTRACT

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning bepul tibbiy yordam olishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqi tahlil qilingan. Respublikada sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish, fuqarolarning sog'liqni saqlash huquqini ta'minlash borasidagi konstitutsiyaviy qoidalar va ularning rivojlanishi, shuningdek, yangi tahrir etilgan Konstitutsiyada belgilangan bepul tibbiy yordamga bo'lgan huquqning kafolatlari o'rganilgan. Maqolada sog'liqni saqlash sohasida qabul qilingan qonunlar, farmonlar va qarorlar tahlil qilinib, tibbiy yordam ko'rsatish tizimining huquqiy asoslari aniqlangan. Konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan tahlil asosida fuqarolarning bepul tibbiy yordam olish huquqini yanada takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Sog'liqni saqlash huquqi fundamental inson huquqlaridan biri bo'lib, har bir inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro huquqiy hujjatlarda, shu jumladan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilangan "inson o'zining hamda oilasining salomatligi va farovonligini ta'minlash" huquqi "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"gi Xalqaro paktning 12-moddasida mustahkamlangan. O'zbekiston Respublikasi mazkur xalqaro hujjatlarga qo'shilgan holda, o'z fuqarolarining sog'liqni saqlash huquqini ta'minlashga qaratilgan konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmlarni yaratish va takomillashtirish borasida izchil islohotlar olib bormoqda. 2022-yilda o'tkazilgan referendum natijasida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlat qurilishining yangi strategik maqsadi — ijtimoiy davlat qurish ekanligi belgilab berildi. Konstitutsiyaning birinchi moddasidayoq O'zbekiston ijtimoiy davlat deb e'lon qilindi. Ayniqsa, aholi salomatligini asrashga oid normalar sezilarli darajada kengaytirildi. Konstitutsiyaning 48-moddasida har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yildi. Bu o'zgarishlar fuqarolarning tibbiy yordam olish huquqining yanada rivojlanishida muhim qadam bo'ldi. Yangi konstitutsiyaviy normalar sog'liqni saqlash tizimida mavjud muammolarni hal etishga erishish imkoniyatini beradi. Ammo, O'zbekistonda sog'liqni

saqlash sohasidagi huquqiy asoslarni takomillashtirish, bepul tibbiy yordam ko'rsatish mexanizmlarini yanada rivojlantirish va bu borada xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka to'liq singdirish masalalari hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot maqsadi: O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning bepul tibbiy yordam olishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqini huquqiy tartibga solish mexanizmlarini tahlil qilish va ularni takomillashtirish yo'llarini aniqlash.

TADQIQOT USULLARI

Mazkur tadqiqotda qiyosiy-huquqiy tahlil, tarixiy-huquqiy, tizimli-mantiqiy tahlil, normativ-dogmatik tahlil kabi ilmiy-tadqiqot usullaridan foydalanildi. Qiyosiy-huquqiy tahlil metodi orqali O'zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar tajribasi taqqoslandi, sog'liqni saqlash sohasida konstitutsiyaviy huquqlarni ta'minlash mexanizmlari qiyosiy o'rganildi. Tarixiy-huquqiy metod O'zbekistonda sog'liqni saqlash huquqining rivojlanish bosqichlarini, huquqiy tartibga solish tizimining tarixiy evolyutsiyasini aniqlash imkonini berdi. Tizimli-mantiqiy tahlil metodi sog'liqni saqlash sohasidagi qonunchilik normalarni tizimli tahlil qilish, huquqiy mexanizmlardagi bo'shliqlarni aniqlash uchun foydalanildi. Normativ-dogmatik tahlil metodi esa huquqiy normalarning mazmunini aniqlash, konstitutsiyaviy qoidalarni va qonunchilik hujjatlarini tahlil qilish uchun qo'llandi. Tadqiqot materiallari sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi qonun, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, shuningdek, ilmiy-huquqiy maqolalar va tadqiqotlar o'rganildi.

TADQIQOT NATIJALARI

Sog'liqni saqlash huquqining ta'minlanishi har qanday davlat va jamiyat uchun o'z aholisining salomatligini muhofaza qilish hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki sog'lom inson va sog'lom xalq mislsiz ishlarni amalga oshirishga qodir bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida fuqarolarga malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi kafolatlangan bo'lib, bu konstitutsiyaviy normaning evolyutsion rivojlanishi kuzatilmoqda. Eski tahrirdagi Konstitutsiyaning 40-moddasida "Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega" deb belgilangan edi[1]. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 48-moddasida esa bu norma yanada kengaytirilib, quyidagicha ifodalangan: "Har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning qonunda belgilangan hamda tez va shoshilinch tibbiy yordamni ham o'z ichiga oladigan kafolatlangan hajmini bepul olishga haqli. Davlat sog'liqni saqlashning davlat, xususiy va boshqa tizimlarini rivojlantirish, sanitariya-epidemiologiya osoyishtalikni ta'minlash, tibbiy sug'urtaning turli shakllarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha zarur choralar ko'radi"[2].

Konstitutsiyaviy o'zgarishlar sog'liqni saqlash sohasidagi davlat majburiyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Aholi salomatligini asrashga oid normalar to'rt barobar ko'paytirildi. Eng muhimi, davlat o'z fuqarolarini moddiy ahvolidan qat'i nazar kafolatlangan bepul tibbiy yordam bilan qamrab olish majburiyatini konstitutsiyaviy darajada belgilab qo'ydi[3]. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 401-moddasida esa ekologik huquqlar masalasi yoritilgan: "Har bir inson sog'lom va qulay atrof-muhit, uning holati to'g'risida ishonchli ma'lumot olish huquqiga ega, ekologik huquqbuzarlik tufayli uning sog'lig'i yoki mol-mulkiga yetkazilgan zararni qoplash to'g'risida" huquqqa ega ekanligi belgilangan[2]. Bu o'z navbatida

fuqarolarning sog'ligiga ta'sir etuvchi ekologik omillarni ham huquqiy jihatdan tartibga solish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi qonuni (1996-yil) fuqarolarning sog'liqni saqlash sohasidagi huquqlarini belgilab beruvchi asosiy qonun hisoblanadi. Ushbu qonunning 8-moddasiga ko'ra, "Davlat sog'liqni saqlash tizimining davolash-profilaktika muassasalari aholiga davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy yordam ko'rsatadi. Bepul tibbiy yordam ko'rsatish hajmi va tartibi qonunchilik bilan belgilanadi"[4]. Ushbu qonun sog'liqni saqlash sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy hujjat bo'lsa-da, yangi konstitutsiyaviy normalarga muvofiq unga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5590-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini 2019-2025-yillarda rivojlantirish konsepsiyasi"da tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish, jumladan fuqarolarga kafolatlangan hajmda bepul tibbiy yordam ko'rsatishni ta'minlash ko'zda tutilgan[5]. Mazkur farmonda belgilangan vazifalar sog'liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, fuqarolarning malakali tibbiy yordam olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan "kafolatlangan tibbiy yordam hajmi" tushunchasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 19-sentabrdagi PF-3923-sonli "Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uni rivojlantirish davlat dasturini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida"gi Farmonida ham o'z ifodasini topgan[6]. Mazkur farmon asosida sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish, fuqarolarga yuqori malakali tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Xususan, aholiga yuqori malakali bepul shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha yagona tizim yaratildi. Bu tizim xalqaro standartlarga javob beradigan ixtisoslashtirilgan viloyat shifoxonalari va 173 ta bo'limlardan hamda tez tibbiy yordam xizmatlaridan iborat bo'lib, ularning faoliyatiga rahbarlik qilish va muvofiqlashtirish ishlari Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi tomonidan amalga oshirilmoqda.

Hukumat qarorlari asosida quyidagi tibbiy xizmatlar bepul ko'rsatilishi belgilangan: tez va shoshilinch tibbiy yordam; birlamchi tibbiy-sanitariya yordami; ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklar (sil, onkologik, ruhiy, narkologik, endokrinologik kasalliklar)ga chalingan bemorlarga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam; homilador ayollar va bolalarga tibbiy yordam; nogironligi bo'lgan shaxslarga va imtiyozli toifadagi fuqarolarga tibbiy yordam[7].

MUHOKAMA

Konstitutsiyaviy normalar va qonunchilikda belgilangan kafolatlar amalda to'liq ta'minlanishida bir qator muammolar mavjud. Birinchidan, kafolatlangan bepul tibbiy yordam hajmining aniq belgilanmaganligi. Qonunchilikda "kafolatlangan bepul tibbiy yordam hajmi" tushunchasi mavjud bo'lsa-da, uning aniq ro'yxati va standartlari to'liq ishlab chiqilmagan. Ikkinchidan, tibbiy xizmatlar sifatining past darajasi. Ayniqsa, qishloq joylarda malakali tibbiy xizmat ko'rsatish darajasi talab darajasida emas. Uchinchidan, tibbiy sug'urta tizimining rivojlanmaganligi. Majburiy tibbiy sug'urta tizimining yo'qligi fuqarolarning tibbiy xizmatlar bilan qamrab olinishiga to'sqinlik qilmoqda. To'rtinchidan, moliyalashtirish mexanizmlarining samarasizligi. Bepul tibbiy yordam ko'rsatish uchun ajratilayotgan byudjet mablag'lari yetarli

emas. Beshinchidan, tibbiy muassasalar moddiy-texnik bazasining yetarli emasligi. Tibbiy muassasalar zamonaviy jihozlar va dori vositalari bilan to'liq ta'minlanmagan.

Yuqoridagi muammolarni hal etish uchun bir qator yo'nalishlarda islohotlarni chuqurlashtirish zarur. Avvalo, kafolatlangan bepul tibbiy yordam standartlarini aniq belgilash, bepul tibbiy yordam xizmatlarining aniq ro'yxati va standartlarini qonunchilik darajasida tasdiqlash lozim. Ikkinchidan, tibbiy sug'urta tizimini rivojlantirish, majburiy tibbiy sug'urta tizimini rivojlantirish orqali tibbiy xizmatlar moliyalashtirilishini ta'minlashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish muhim. Uchinchidan, sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish - "Elektron sog'liqni saqlash" tizimini rivojlantirish orqali tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirish zarur. To'rtinchidan, tibbiy xizmatlar sifatini nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish - tibbiy xizmatlar sifatini baholash tizimini yaratish va mustaqil nazorat mexanizmlarini joriy etish. Beshinchidan, tibbiy muassasalar moddiy-texnik bazasini mustahkamlash - tibbiy muassasalarni zamonaviy jihozlar va dori vositalari bilan ta'minlash ishlarini jadallashtirish kerak[8].

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining bepul tibbiy yordam olishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqini ta'minlash masalasi butun dunyo davlatlari oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) har bir davlatdan o'z fuqarolarining sog'liqni saqlash huquqini ta'minlash bo'yicha samarali mexanizmlarni yaratishni talab etadi. JSST Nizomiga binoan, "Sog'liqni saqlash bu - nafaqat kasalliklar va jismoniy nuqsonlarning yo'qligi, balki jismoniy, aqliy va ijtimoiy farovonlikning holati. Sog'liqni saqlashning eng yuqori darajasidan foydalanish har bir insonning irqi, dini, siyosiy qarashlari, iqtisodiy yoki ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, asosiy huquqlaridan biridir"[9].

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining tibbiy yordamning qonunda belgilangan hamda tez va shoshilinch tibbiy yordamni ham o'z ichiga oladigan kafolatlangan hajmini bepul olishga haqli ekanligi to'g'risidagi norma fuqarolarning sog'liqni saqlash sohasidagi huquqlarini ta'minlashda muhim yutuq hisoblanadi. Kafolatlangan bepul tibbiy yordam hajmini belgilash, shuningdek, bu tibbiy yordamni moliyalashtirish mexanizmlarini yaratish fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Konstitutsiyaviy normalarni hayotga tatbiq etish mexanizmlarini yaratish, qonunchilikni yangi konstitutsiyaviy normalarga moslashtirish zarur[10].

Xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, sog'liqni saqlash sohasida eng samarali tizim bu — tibbiy sug'urta tizimi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ham tibbiy sug'urta tizimini rivojlantirish orqali fuqarolarning sifatli tibbiy yordam olish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Konstitutsiyada belgilangan "davlat tibbiy sug'urtaning turli shakllarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish" normasi sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan. Tibbiy sug'urta tizimini rivojlantirish orqali fuqarolarning tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish mumkin[11].

Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish ham fuqarolarning tibbiy yordam olish huquqini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-fevraldagi "Sog'liqni saqlash sohasida raqamlashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5000-sonli Qarori sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish, "Elektron sog'liqni saqlash" tizimini rivojlantirish borasidagi islohotlarni amalga oshirishga

qaratilgan[12]. “Elektron sog‘liqni saqlash” tizimini rivojlantirish orqali tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirish, tibbiy ma‘lumotlarni saqlash va uzatish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. H. Safarova ta‘kidlaganidek, “Elektron sog‘liqni saqlash” tizimini rivojlantirish fuqarolarning tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi, tibbiy xizmatlar sifatini oshiradi[13].

N.E. Gafurova O‘zbekistonda tibbiyotni raqamlashtirishni rivojlantirish va huquqiy tartibga solish masalalarini o‘rganar ekan, “qonunchilikni yanada takomillashtirish, “Teletibbiyot to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilish zarurligini” ta‘kidlaydi[14]. Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish bo‘yicha rivojlangan mamlakatlar tajribasini o‘rganish, ularning tajribasini O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Kafolatlangan tibbiy yordam tushunchasi va uni amalga oshirish mexanizmlarini aniqlash maqsadida “Aholi salomatligi to‘g‘risida”gi Kodeks ishlab chiqilmoqda. Ushbu kodeks sog‘liqni saqlash sohasidagi qonunchilikni tizimlashtirish, fuqarolarning sog‘liqni saqlash sohasidagi huquqlarini ta‘minlash mexanizmlarini yaratish imkonini beradi. Yuqorida sanab o‘tilgan muammolarni hal etish, fuqarolarning bepul tibbiy yordam olishga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqini to‘liq ta‘minlash uchun kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

XULOSA

O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning bepul tibbiy yordam olishga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqining ta‘minlanishi masalalarini o‘rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada fuqarolarning sog‘liqni saqlash sohasidagi huquqlari sezilarli darajada kengaytirildi. Asosiy qonunning 48-moddasida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning qonunda belgilangan hamda tez va shoshilinch tibbiy yordamni ham o‘z ichiga oladigan kafolatlangan hajmini bepul olishga haqli ekanligi belgilandi. Ikkinchidan, konstitutsiyaviy normalarni hayotga tatbiq etish maqsadida qonunchilikni yanada takomillashtirish, “Aholi salomatligi to‘g‘risida”gi Kodeksni qabul qilish zarur. Uchinchidan, kafolatlangan bepul tibbiy yordam standartlarini aniq belgilash, tibbiy xizmatlar sifatini nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish lozim. To‘rtinchidan, tibbiy sug‘urta tizimini rivojlantirish fuqarolarning tibbiy yordam olish imkoniyatlarini kengaytirish, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish imkonini beradi. Beshinchidan, sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish, “Elektron sog‘liqni saqlash” tizimini rivojlantirish tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirish, tibbiy ma‘lumotlarni saqlash va uzatish imkoniyatlarini kengaytirish uchun zarur.

O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning bepul tibbiy yordam olishga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqini ta‘minlash masalasi davlatning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar fuqarolarning sog‘liqni saqlash sohasidagi huquqlarini ta‘minlashga, tibbiy xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (1992-yil 8-dekabr). – T.: O‘zbekiston, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahrir). – T.: O‘zbekiston, 2022.
3. Bekatova Z. Davlat fuqarolarini kafolatlangan bepul tibbiy yordam bilan qamrab oladi // Internet maqolalar. – 2024. <https://lex.uz/uz/info/news/12154> (murojaat qilingan sana: 05.04.2025)

4. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi qonuni. 1996-yil 29-avgust // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 y., 9-son, 128-modda.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5590-sonli Farmoni. 2018-yil 7-dekabr // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.12.2018 y., 06/18/5590/2285-son.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uni rivojlantirish davlat dasturini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida"gi PF-3923-sonli Farmoni. 2007-yil 19-sentabr // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007-y., 37-38-son, 382-modda.
7. Toshmatova M. Yangi Konstitutsiyada bepul tibbiy yordamning kafolatlari // Internet maqolalar. – 2022. <https://www.insonhuquqlari.uz/uz/publications/jurnal/7/190/> (murojaat qilingan sana: 05.04.2025)
8. Yusupova F. Ўзбекистон Республикасида теле-тиббиёт соҳасининг ҳуқуқий жиҳатлари // Academic research in modern science. – 2022. – Т. 1. – №. 9. – С. 243-245.
9. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti. Global digital health strategy 2020-2025. - 2021. <https://www.who.int/docs/default-source/documents/g4dhdaa2a9f352b0445bafbc79ca799dce4d.pdf> (murojaat qilingan sana: 05.04.2025)
10. Safarova H. Yangi Konstitutsiyada bepul tibbiy yordamning kafolatlari // Internet maqolalar. – 2022. https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/yangi_konstitutsiyada_bepul_tibbiy_yordamning_kafolatlari (murojaat qilingan sana: 05.04.2025)
11. Gafurova N., Oryntaev J. Международное сотрудничество в борьбе с пандемией, вызванной коронавирусом COVID-19: зарубежный и национальный опыт // Review of law sciences, №2, 2020, С.130.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'liqni saqlash sohasida raqamlashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5000-sonli Qarori. 2021 yil 23 fevral // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.02.2021 y., 07/21/5000/0145-son.
13. Safarova H. Yangi Konstitutsiyada bepul tibbiy yordamning kafolatlari // Internet maqolalar. – 2022. https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/yangi_konstitutsiyada_bepul_tibbiy_yordamning_kafolatlari (murojaat qilingan sana: 05.04.2025)
14. Gafurova N.E. O'zbekiston Respublikasida tibbiyotni raqamlashtirishni rivojlantirish va huquqiy tartibga solish masalalari // Yurist axborotnomasi. – 2022. - № 4. - B. 78-87.
15. Yusupova F. Tibbiyot huquqini tartibga soluvchi xalqaro mexanizmlar // SAI. – 2022. - №С3. – B. 214-218.